



TALABALARNING TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUV MOTIVATSIYASINING AHAMIYATI.

*Andijon davlat pedagogika institute Ijtimoiy va Amaliy fanlar fakulteti Musiqa
ta'limi yo'nalishi 101-guruh talabasi
Yo'Ichiboyeva Risola Azamatjon qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quv motivatsiyasining talaba shaxsini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish va kasbiy yo'nalishni aniqlashdagi o'rni yoritilgan. Motivatsiyaning turlari, uni shakllantiruvchi omillar hamda pasaytiruvchi sabablar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida motivatsiyani kuchaytirishga oid samarali yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: talaba, motivatsiya, o'quv jarayoni, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В статье рассматривается роль академической мотивации в формировании личности студента, повышении эффективности обучения и определении профессиональной направленности. Анализируются типы мотивации, факторы, ее формирующие, а также смягчающие факторы. Также рассматриваются эффективные подходы к повышению мотивации в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: студент, мотивация, процесс обучения, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, эффективность обучения.

Abstract: This article discusses the role of learning motivation in shaping a student's personality, improving educational effectiveness, and determining a professional direction. Types of motivation, factors that shape it, and reasons that reduce it are analyzed. Effective approaches to increasing motivation in the modern educational process are also discussed.

Keywords: student, motivation, learning process, intrinsic motivation, extrinsic motivation, educational effectiveness.



Kirish. Globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan bugungi axborot asrida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi — bilimli, faol va maqsadli yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun esa o'qitish jarayoni samarali va natijador bo'lishi lozim. Bu borada talabalarni rag'batlantirish, ya'ni o'quv motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki motivatsiyasiz o'qitish — ko'r-ko'rona o'rganish, natijasiz jarayonga aylanishi mumkin. Hozirgi kunda talaba yoshlarga juda ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoni [1], shuningdek, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son qarori [2] ijrosini ta'minlash, shuningdek, ta'lim grantlarini iqtidorga yo'naltirish, grant kvotalarining taqsimlanishida raqobat muhitini yaratish va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lim grantini har o'quv yili yakunlangandan so'ng bakalavriat ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi), ta'lim tili va kurslar kesimida tabaqalashtirilgan tarzda alohida qayta taqsimlash yo'lga qo'yildi. Ushbu joriy etilgan qarorga ko'ra to'lov shartnomasi asosida o'qiydigan talaba ham endi davlat grantiga o'tishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ya'ni agar to'lov shartnomasi asosida tahsil oladigan talaba davlat grantida o'qiydigan talabadan ko'ra iqtidorli bo'lsa uni o'rnini egallash imkoniyatiga ega. Bu kabi talaba yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar talaygina. Men faqat bittasini misol tariqasida keltirdim. Bu imkoniyatlarning hammasi biz uchun. Biz bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalansak, albatta muvaffaqiyat qozonib "III Renesans" yoshlariga aylanamiz.

Asosiy qism. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining(xulq-atvori, faoliyati) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi sanaladi. Motivatsiya- insonni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar



ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. [3]. Albatta, bu fikr o'rinli bo'lib motivatsiya ayniqsa talabalar ta'lim faoliyatida alohida ahamiyatga ega, sababi bo'lajak kasbiga loqaydlik bilan qarash kelajakda ulkan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ko'plab psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi aytib o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi agar o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulaylik va noaniqlikni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilar bilan bog'liq. Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topishi ta'kidlab o'tilgan.

Motivatsiya har bir faoliyat, kasb uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa talabalar ta'lim faoliyatida o'quv motivlari alohida o'rin kasb etadi.

O'quv motivining asosiy ikki turi mavjud: Ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya.

Ichki motivatsiya — bilim olishning o'zidan zavqlanish, qiziqish asosida o'rganishga bo'lgan tabiiy istak.

Tashqi motivatsiya — baho, diplom, stipendiya, ota-onaning bosimi, jazodan qo'rquv kabi tashqi omillar ta'siri ostida o'qishga intilish [3]. Haqiqatdan ham ichki motivatsiya eng muhimi sanaladi sababi ichki motivatsiyasiz qilingan har bir faoliyat, u qanday faoliyat bo'lishidan qat'iy nazar hoh o'yin faoliyati bo'lsin, hoh mehnat, hoh ta'lim faoliyati bo'lsin barcha faoliyatda birdek muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda yuksak o'rinlarni egallaydi.

Soddaroq qilib aytganda ichki motivatsiyasi bor inson biror ishni o'ziga yoqqani uchun bajaradi. Tashqi motivatsiyaga ega inson esa shu ishdan biror manfaat bo'lsagina bajaradi.

Masalan, musiqa maktabiga boradigan bola fortepianoni o'zi qiziqqani uchun chalishi bu ichki motivatsiya. O'sha fortepianoni ustozidan dakki



eshitmaslik yoki imtihondan yaxshi baxo ololmasligidan qoʻrqib chalish esa tashqi motivatsiya hisoblanadi.

Ushbu ikki turdagi motivatsiya uygʻunlashishidan hosil boʻlgan taʼlim jarayoni yanada samarali boʻladi. Bundan tashqari koʻplab olimlar ham motivatsiya sohasida bir qancha tadqiqotlar olib borishgan.

Misol uchun motivatsiya sohasidagi oʻtkazilgan tadqiqotlar orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi [4] alohida oʻrin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport oʻz konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi gʻoyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi gʻoyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat koʻrsatadi va rivojlanadi, yaʼni funksional avtonomiyaga ega deb aytib oʻtgan. P.M.Yakobson fikricha esa taʼlim jarayoni bilan bogʻliq boʻlmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb, taʼlim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydi [5]. L.N.Bojovich oʻtkazgan tadqiqotida taʼlimni motivatsiyalash muammosi boʻyicha oʻz oldiga oʻquvchilarning oʻqishga boʻlgan munosabati, psixologik jihatlari qanday maydonga chiqadi degan masalani hal qilishni maqsad qilib qoʻyadi [6]. Bu munosabatning psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlardan biri "oʻquvchilar oʻqish faoliyati"ni belgilaydigan motivlarning yigʻindisi hisoblanadi. Albatta bu keltirilib oʻtilgan fikrlar juda ham oʻrinli. Motivatsiya haqida juda koʻplab olimlar tadqiqotlar oʻtkazib, oʻz nazariyalarida qarashlarini ifoda etgan. Men bulardan eng kerakli deb bilganlarimnigina keltirib oʻtdim holos.

Talabaning oʻquv faoliyatida motivatsiyaning oʻrni. Talabaning oʻquv faoliyatida motivatsiyaning oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi keltirilgan jumlar bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Motivatsiyalangan talaba:



- ✓ bilim olish jarayonida faol ishtirok etadi;
- ✓ darsdan tashqari vaqtida ham o'z ustida ishlaydi;
- ✓ murakkab vazifalardan cho'chimaydi, aksincha ulardan ilhomlanadi;
- ✓ tanlagan kasbiga chuqurroq qiziqadi va unga tayyorgarlik ko'radi;
- ✓ akademik natijalari barqaror bo'ladi.

Motivatsiyasiz talaba esa:

- ✓ Bilim olish jarayoniga loqaydlik bilan qaraydi.
- ✓ Darsdan tashqari vaqtida o'z ustida ishlashi tugul, dars vaqtida ham e'tiborsiz o'tiradi.
- ✓ Oddiy vazifalarni ham o'z vaqtida qilmaydi.
- ✓ Qo'pol qilib aytganda darsga faqat MB tushmasligi uchun keladi.

Demak, o'quv motivatsiya talabaning nafaqat bilim darajasiga balki, shaxsiy shakllanishiga ham ta'sir qiladi va yordam beradi [7].

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir.

Odatda quyi kurslardagi talabalar o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur etishga harakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ko'pincha ular o'quv faoliyatini boshqarish deganda, o'quv materiallari o'zlashtirilishini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash kabilarni tushunadilar. Bu kabi tushunmovchiliklar ta'lim tizimida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qiyinchilikning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zahirida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish uquvining zaifligi yotadi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurti talabalari ko'pincha o'quv materiallarini



o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi qishki va yozgi sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir. Ma'lumki, oliy ta'limda mustaqillik va mustaqil o'quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma'lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o'quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etishi bilan birgalikda motivatsiyani shakllantirishni ham talab etadi.

Motivatsiyaning shakllantiruvchi asosiy omillardan yana biri o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Talaba hayotida o'qituvchi katta ahamiyat ega ekanligi barchaga ma'lum. Ya'ni o'qituvchi tomonidan rag'batlanish, maqto'v eshitish, ularni ishonchlarini oqlash har bir talabaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Oliy ta'limda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarining sabablari va manbalarini tadbiq etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyatda bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning amonaviy yondashuvlar orqali motivatsiyani oshirish asosiy omillarini aniqlashdan iborat.

Bunday yondashuvlar talabani faol ishtirokchi sifatida tarbiyalaydi va uning o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.



Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish joizki talabalarning ta'limdagi muvaffaqiyati bevosita ularning o'quv motivatsiyasiga bog'liq. O'qituvchi esa ushbu motivatsiyani shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida o'z pedagogik mahorati, kommunikativ ko'nikmalari va didaktik yondashuvi orqali bunda muhim rol o'ynaydi. Har bir talabaning qiziqishi, ehtiyoji va shaxsiy xususiyatlari inobatga olingan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish — zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridandir. Shuni unutmaslik kerakki, motiv qurilish o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uni rivojlantirishda ta'lim ehtiyojlari, o'qituvchilar, psixologlar va hatto oila a'zolarining roli beqiyosdir. Talabada bilim olish ishtiyoq uyg'otish uchun unga qulay, do'stona muhit, yutuqlari e'tirof etish, xatolari asos sifatida ko'rsatilishi kerak. Bu ta'lim sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon. Har qanday o'quv tizimi yoki dastur, avvalo, talabaning tibbiy holatini, tajribasini inobatga olgan holda muvaffaqiyatga erishadi. Shu boisdan, motivatsiya masalasi ta'lim siyosatining mustahkam yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoni.
2. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son qarori.
3. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent-2009.
4. Bekchanova Charos. "Conference on universal science research-2023" Motiv va motivatsiya.
5. Asqaraliyeva Hayotxon. International scientific and practical conference "The time of scientific progras" 2023 Warsaw, (Poland). Media-kommunikativ muloqotda paralingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari.
6. "Ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonida xulq-atvor shakllanishining pedogogik va psixologik jihatlarini" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (maqolalar to'plami). 2023-yil.
7. E. G'oziyev. Ontagenez psixologiyasi. 2010-yil.